

## O'ZBEKISTONDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH BORASIDAGI PARLAMENT FAOLIYATI

Ahatjonov Sunatilla Sobirjon o'g'li

Namangan davlat univesiteti tadqiqotchisi,

Xalq deputatlari Chust tuman Kengashi kotibiyati mudiri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7578790>

BMTning Inson huquqlari bo'yicha Ikkinchi jahon konferensiyasining (1993-yil, Vena) har bir mamlakatda inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar tuzish to'g'risidagi da'vatiga binoan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) tuzildi. Shuningdek, Oliy Majlis BMT «Inson xuquqlari umujahon deklaratsiyasi»ni e'tirof etgan holda uni birinchi xalqaro shartnoma sifatida qabul qildi ratifikatsiya qildi.

"O'zbekistonda inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning xalqaro huquq normalari, rivojlangan mamlakatlar tajribasi va milliy an'analar asosida shakllanishi va rivojlanishi faqat mustaqillik davriga kelib o'z ifodasini topdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi mustaqillik davrida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan 7 konstitutsiyaviy qonunlar, 16 ta kodeks va inson huquqlariga oid 600 dan ziyod qonunlar qabul qilindi. Shuningdek, mazkur huquqiy asoslar va xalqaro me'yorlardagi prinsiplar qator qonunlar va qonun osti hujjatlarida mustahkamlandi. Ularning ichida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) parlamentning inson huquqlarini himoya qilish va ta'minlash sohasidagi qonunlar va xalqaro huquq normalarini O'zbekistondagi ijrosi ustidan parlament nazoratini olib boradi. Uning bu vakolati "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha Ombudsmani (Ombudsman) to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasida mustahkamlab qo'yildi: "Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha Ombudsmani - mansabdor shaxs bo'lib, unga O'zbekiston Respublikasida davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar tomonidan inson huquqlari to'g'risida"gi amaldagi qonun hujjatlariga rioya etilishining samaradorligi ustidan parlament nazoratini ta'minlash vakolatlari berilgan"<sup>1</sup>.

O'zbekistonda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (keyingi o'rinlarda Ombudsman) 1995-yilda Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib tashkil etildi. 1997-yil 24-aprelda O'zbekiston Respublikasining «Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida» qonuni qabul qilinganidan keyin

<sup>1</sup>Ўзбекистон Республикасининг "Олий Мажлиснинг Инсон ҳуқуқлари бўйича вакили (Омбудсман) тўғрисида"ги Қонуни (27.08.2004 йил янги таҳрирда қабул қилинган) // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997, № 4-5,102-модда.

Ombudsmanning inson huquqlarini himoyalashga doir parlament nazoratiga oid faoliyati jonlandi. Albatta, bu davrda hali professional parlamentning tashkil etilmaganligi, deputatlar o'z vaqtlarini asosan ish joylarida o'tkazishi kabi holatlar hali chinakamiga inson huquqlarini himoyalash institutlari xalqaro me'yorlar talablari darajasi talablariga to'liq javob bermas edi.

1998-yil ichida Ombudsmaniga fuqarolardan 2875 ariza va shikoyatlar tushdi. Ularning barchasi mavjud qonunchilik asosida ko'rib chiqildi va ularning natijalari murojaat qilgan fuqarolarga yuborildi. Ekspertlarning fikricha, 2000-yilga kelib uning mintaqalarda - Qoraqalpog'istan Respublikasi, Andijon, Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Navoiy va Xorazm viloyatlarida vakolatxonalari ochildi.

Bu davrda asosan fuqarolarni qabul qilish va ularning shaxsiy murojatlarini ko'rib chiqishga muhim ahamiyat qaratildi. 2000-yilda fuqarolarning 239 ta yozma, 288 ta og'zaki murojaatlari ko'rib chiqildi. Aksariyat holatlarda inson huquqlarining buzilishi tiklandi, ba'zi fuqarolarga uning huquqlari va buzilgan huquqini tiklashga doir maslahatlar berish rusumga kirdi. Shu yilda fuqarolarning murojaatlarini o'rganish maqsadida mintaqaviy vakolatxonalarga ijro etish uchun 68 ta topshiriqnomalar berildi.

Ombudsman 2001-yildan boshlab joylarda inson huquqlariga doir vaziyatlarga doir axborotlar olish maqsadida tashkil etilgan «joylardagi qabulxonalar»da fuqarolarni qabul qilish shaklidan keng foydalana boshladi. "2001-yil davomida Ombudsman va uning devoni xodimlari Farg'ona, Buxoro va Sirdaryo viloyatlarida murojlat etgan fuqarolarni qabul qildi. Bu yilda tushgan murojaatlarning 54 foizi sud va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatiga taalluqli bo'lib, murojaatlarda ishlarni ko'rib chiqishni cho'zilib ketishi, sansalorlik, tergov va sud xodimlarining huquqni buzishga doir xatti-harakatlari, sud hukmlari yoki ularni ijrosidagi ziddiyatli jihatlar, tergov olib borishning nohuquqiy tarzda kechishi, tergov ostidagi fuqarolar huquqlarini buzilishi kabi holatlar yuzasidan da'volar keltirilgan edi. Agar 2000 yilda – 4323 ta, 2001-yilda – 4472 ta, 2002-yilda – 5130 ta fuqarolar murojaatlari kelib tushgan bo'lsa, 2003-yilda ularning soni 5837 taga yetdi. Bu davrda Ombudsmanning parlament nazorati sifatida inson huquqlariga doir qonunlarga rioya qilinishini monitoring qilish tajribasi shakllandi. Ombudsman har uch yilda bir marta hokimliklarga inson huquqlarini keltirib chiqaradigan sabab va shart-sharoitlar tahliliga oid ma'ruzalar, ularga barham berishga doir tavsiyalar berish qoidasi o'rnatildi"<sup>2</sup>.

2002-yilda Ombudsman parlament nazorati tariqasida O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining Xorazm viloyatida bajarilishi

<sup>2</sup> О деятельности Уполномоченного Олий Мажлиси по правам человека (Омбудсмана) в 2002 году // [http://lex.uz/pages/GetAct.aspx?lact\\_id=89126](http://lex.uz/pages/GetAct.aspx?lact_id=89126)

bo'yicha, «Fuqarolar sog'ligini muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunining Jizzax viloyatida bajarilishining borishi ustidan monitoring tadqiqotlari o'tkazdi. Ularning natijasida Xorazm viloyatida bolalarning o'rta va kasbiy ta'lim olishini ta'minlashda ta'lim tizimiga oid davlat organlarining kamchiliklari aniqlandi. O'rta va kasbiy ta'lim olish o'quv yurtlarida darsliklar, uslubiy qo'llanmalar yetishmasligi, ularning nusxalarini kamligi, bu kabi adabiyotlar bilan faqat 70-75 foiz o'uvchilar ta'minlangani ma'lum bo'ldi. Nazorat materiallari natijasini muhokama qilish uchun 2002-yil 24-iyunda Xorazm viloyati hokimligida kengaytirilgan majlis o'tkazildi. Unda tegishli qaror va kamchiliklarga barham berish yuzasidan Ombudsmanning tavsiyalari qabul qilindi.

«Fuqarolar sog'ligini muhofaza qilish to'g'risida»gi qonunning Jizzax viloyatida bajarilishi bo'yicha o'tkazilgan monitoring tadqiqotlari jarayonida viloyat tug'ruqxonalari bosh hakimlarini so'rov qilish shuni ko'rsatdiki, tug'ruqxonalar nafaqat kapital ta'mirlashga muhtoj, balki ularning ba'zilari buzilish arafasida turganligi ma'lum bo'ldi. Deyarli ularning barchasida laboratoriya, tashhis qo'yish va boshqa maxsus uskunalar va asboblarning yetishmasligi, bu viloyatda sog'liqni saqlash va boshqa tegishli tashkilotlar ish faoliyatini takomillashtirishga zarurat mavjudligi aniqlandi. Ana shu holatlardan kelib chiqib, Ombudsmanning viloyatda sog'liqni saqlash tizimi moliyaviy va moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlashga doir tavsiyalari iglab chiqilib, u Jizzax viloyati hokimligiga tavsiya etildi. Ularni amalga oshirish jarayonida viloyatda bir yil ichida ko'rsatilgan kamchiliklarning aksariyati o'z yechimlarini topdi<sup>3</sup>.

Shuningdek, Ombudsmanning mamlakatda bolalar huquqini himoya qilish, bu sohada qonunchilik ijrosi ustidan parlament nazoratini olib borish ishiga katta hissa qo'shdi. 1997-2013 yillarda bu sohada turli mintaqalarda 10 marta monitoring tadqiqotlari o'tkazildi. Jumladan, Ombudsman 2000-yilda Toshkent viloyatidagi kollejlarda, litseylar, maktablar, internatlar, maktabgacha bolalar muassasalari faoliyati o'rgandi. Bunda Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning ijrosini amalga oshirishni nazorat qilish asosiy maqsad qilib qo'yildi.

“O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha Ombudsmani (ombudsman) faoliyatini takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”<sup>4</sup>gi O'zbekiston Respublikasi qonuni (2009-yil 28-aprel) qabul qilingan qonunga binoan Ombudsman institutining moddiy-resurs bazasi ancha mustahkamlandi.

<sup>3</sup>О деятельности Уполномоченного Олий Мажлиса по правам человека (Омбудсмана) в 2002 году // [http://lex.uz/pages/GetAct.aspx?lact\\_id=89126](http://lex.uz/pages/GetAct.aspx?lact_id=89126).

<sup>4</sup> <https://lex.uz/acts/276159>

“Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonunning 2009-yilda o‘tkazilgan monitoringi natijalariga binoan sud organlarining huquqni qo‘llash amaliyotidagi quyidagi kamchiliklari aniqlandi. arizalar, takliflar va shikoyatlarni ko‘rib chiqishning aniq va samarali mexanizmi mavjud emas; sud organlari tomonidan fuqarolar murojaati to‘g‘risidagi qonunchilikni amalga oshirishning samarali mexanizmiga yetarli e‘tibor qaratilmagan; fuqarolarni shaxsan qabul qilish va uni tashkil qilishga yetarli e‘tibor qaratilmaydi, fuqarolar uchun zaruriy bo‘lgan axborot yetarli emas, ish yuritishni olib borish tartibiga rioya qilmaslik holatlari uchraydi; protsessual qonunchilik bilan bog‘liq bo‘lmagan ariza va shikoyatlarda bayon etilgan masalalar tezkor va o‘z vaqtida hal etilmaydi; sud organlari rahbarlari tomonidan fuqarolar murojaatlari bilan bog‘liq ishlar yetarli nazorat qilinmaydi, sud organlariga kelib tushayotgan arizalar va shikoyatlarni umumlashtirish va tahlil qilishga yetarli e‘tibor qaratilmaydi. Shuningdek, ba’zida fuqarolar murojaatlari yuzasidan ularga berilgan javoblarning to‘liq emasligi, ular “quruq rasmiyatchilik” xususiyatini kasb etishi, arizachining barcha dalillariga asosli javoblar taqdim etilmaslik holatlari aniqlandi.

Monitoring natijalarini umumlashtirish va tahlil etish asosida Ombudsman fuqarolar murojaatlari bilan bog‘liq ishlar bo‘yicha sud organlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida Oliy sudga, uning huzuridagi Sud qonunchiligini liberallashtirish va demokratlashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha tadqiqot markaziga, Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish Markaziga quyidagi tavsiyalarni taqdim etdi:

qonunchilikdagi aniqlangan qarama-qarshilik va bir-biriga mos kelmaydigan moddalarni bartaraf etish maqsadida amaldagi O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida”gi qonunini takomillashtirish;

fuqarolarning murojaatlarini o‘z vaqtida va sifatli ko‘rib chiqilishi ustidan sudyalardan va sud organlari xodimlarining ma‘suliyatini oshirish;

sud organlarida fuqarolar murojaatlari bilan ishlashning ahvolini davriy tahlilini o‘tkazib borish amaliyotini o‘rnatish;

murojaatlarni ko‘rishga doir ishlab chiqilgan tartibotlar va murojaatlarning to‘liq tasniflariga asoslangan holda fuqarolar murojaatlarini ko‘rib chiqish tizimini yanada takomillashtirish;

huquqiy makon monitoringi mexanizmini shakllantirishning muhim qismlaridan biri - murojaat kelib tushgandan keyin undagi o‘z isbotini topgan huquqbuzarliklarga barham berish jarayonini kuzatish imkonini beradigan axborot-ma‘lumotlar bazasini shakllantirish;

fuqarolar murojaatlari bilan ishlash samaradorligini oshirish bo'yicha uslubiy va yuridik maslahatlar berish faoliyatini tashkil etish va o'tkazish qoidalarini qabul qilish va uni amaliyotda qo'llash<sup>5</sup>.

"2010-2014 yillarda Ombudsman tomonidan qonun loyihalarini takomillashtirishga doir 80 dan ortiq takliflar taqdim etilgan bo'lib, ular Qonunchilik palatasi tomonidan qonun loyihalarini o'qishlar chog'ida inobatga olindi. Xususan, «Rieltorlik faoliyati to'g'risida»gi, «Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi, «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi, «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi, «Vasiylik va homiylik to'g'risida»gi, «Garov reestri to'g'risida»gi, «Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infeksiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to'g'risida»gi, «Jismoniy va yuridik shaxslarni murojaatlari to'g'risida»gi qonun loyihalariga 80 ta Ombudsman tavsiya etgan takliflar kiritildi"<sup>6</sup>.

2011-yilda Ombudsmanga 11238 ta murojaatlari tushdi. Ulardan 7134 tasi markaziy idoraga, 749 tasi mintaqaviy ombudsmanlarga yuborilgan edi. Shundan 3579 ta murojaat Ombudsman nazorati ostiga olindi. Yil davomida 607 ta murojaatda keltirilgan shikoyatlar ijobiy hal etildi. Shuningdek, 6 ta xulosaviy taqdimnomalar tayyorlanib, ulardan 3 tasi Oliy sudga, 5 tasi Bosh prokuraturaga, 1 tasi Ichki ishlar vazirligiga taqdim etildi. Yil davomida Xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi va "Mahalla" jamg'armasi bilan hamkorlikda Toshkent shahri va boshqa mintaqalarda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish vositasida munosib hayot tarzi kechirishda inson huquqlarini himoyalashni ta'minlash masalalariga oid monitoring tadqiqotlari o'tkazildi. Uning natijalari asosida tayyorlangan tavsiyalar turli vazirliklar va huquqni muhofaza qilish organlariga yuborildi.

Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari qo'mitasining 2013-yil 26-dekabrda o'tkazilgan majlisida vazirliklar, davlat qo'mitalari va boshqa davlat idoralarning vakillari, mintaqaviy ombudsmanlar ishtirokida muhokama qilindi. Majlis yakunlari yuzasidan qo'mitaning qarori qabul qilinib, unda davlat organlariga monitoring jarayonida aniqlangan kamchiliklarga jiddiy e'tibor qaratish va kelgusida bu kabi kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rishga doir tavsiyalar majmui taqdim

<sup>5</sup>Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Инсон ҳуқуқлари бўйича вакили (Омбудсман)нинг 2009 йилдаги фаолияти тўғрисида ҳисобот //Ўзбекистон Республикаси Инсон ҳуқуқлари бўйича вакили (Омбудсман) жорий архиви.-Т.,2010.-Б.18-19.

<sup>6</sup> О'sha manbaa.

etildi, ular tegishli vazirliklar va organlarga yuborildi. Mazkur tavsiyalarni nazorat qilish asnosida yarim yil ichida ko'rsatilgan kamchiliklarning aksariyatiga barham berildi<sup>7</sup>.

2021-yilning 16-fevralida Qonunchilik palatasining majlisida deputatlar Ombudsmanning 2020-yildagi faoliyati to'g'risidagi hisobotni eshitdi. Hisobot yilida Ombudsman tomonidan 15 dan ortiq qonun loyihasining inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi milliy qonunchilik hujjatlariga, xalqaro standartlarga muvofiqligini huquqiy ekspertizadan o'tkazganligi ta'kidlandi. Yil davomida Ombudsmanning Qonunchilik palatasi bilan o'zaro hamkorligi nafaqat qonun loyihalarini huquqiy ekspertizadan o'tkazishda, balki nazorat-tahlil faoliyatida ishtirok etish, qonunchilik hujjatlariga rioya qilish monitoringi yakunlari bo'yicha axborot almashish jarayonlarida ham namoyon bo'ldi.

Umuman olganda Ombudsman mustaqillik davrida, ayniqsa 2005-yildan boshlab ikki palatali professional parlament tashkil topganidan keyingi davrdan keyin xalqaro tajribalar asosida to'laqonli faoliyat yurita boshladi. U asosan uchta yo'nalishda parlament nazoratini amalga oshirdi:

1) fuqarolarning murojatlari o'rganish faoliyati natijasi o'laroq qonunlar ijrosini nazorat etib bordi;

2) qonun hujjatlarini ijro etilishini monitoring qilish natijalari bo'yicha qonunlar ijrosini nazorat etdi;

3) qonunlar loyihasini ekspertizadan o'tkazish jarayonida inson huquqlariga doir xalqaro huquq me'yorlarini kiritishga doir takliflari bilan qonun ijodkorligi jarayonini nazorat etib bordi.

Shuningdek, amalga oshirilgan ishlar to'g'risida malumotlar elon qilish, murojaatchilar bilan bog'lanish kabi maqsadlarni amalga oshirish uchun <http://ombudsman.uz/uz> internet manzilining doimiy ravishda ishlashi yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu Ombudsman faoliyatining shaffofligini taminlash hamda samaradorligini oshirish borasida ijobiy amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

"O'zbekistonning Xalqaro mehnat tashkiloti konvensiyalari doirasida xalqaro majburiyatlarini, shuningdek, ushbu tashkilot tomonidan taqdim etilgan paxta yig'im-terim kampaniyasi monitoringi yakunlari bo'yicha tavsiyalarni bajarishi, shu jumladan, 2017 - 2020 yillarda O'zbekistonda munosib mehnat bo'yicha dasturning amalga oshirilishi xalqaro hamkorlar tomonidan ijobiy baholandi"<sup>8</sup>.

<sup>7</sup>Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг 2010-2014 йиллардаги фаолияти тўғрисида ахборот // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг ахборотномаси, 2014, №12 (1465).-Б.82-82.

<sup>8</sup>“2017 — 2021 йилларда ўзбекистон республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегиясини «илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 02.03.2020 йилдаги ПФ-5953-сон. <https://lex.uz/docs/4751561>

BMT tashkil etilganidan buyon Osiyo mintaqasida birinchi marta tashkil etilgan "Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi Samarqand shahrida bo'lib o'tdi. Ushbu Forumda BMT Bosh Assambleyasi 73-sessiyasining asosiy hujjatlaridan biri sifatida tasdiqlangan Inson huquqlari bo'yicha Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi. O'zbekiston parlamenti inson huquqlarining «Samarqand ruhi»ni amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi»ni tasdiqladi.

2019-yilda Toshkent shahrida Islom hamkorlik tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha Mustaqil doimiy komissiyasining VI yillik seminari o'tkazildi va uning natijalari bo'yicha Yoshlar huquqlari to'g'risidagi Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi"<sup>9</sup>.

Mamlakatda inson huquqlari sohasida amaldagi holatni o'rganish natijalari, shuningdek, BMTning shartnomaviy organlari, O'zbekistonga tashrif buyurgan BMTning maxsus ma'ruzachilari, Universal davriy hisobot va boshqa xalqaro mexanizmlar doirasida berilgan tavsiyalarning tizimli tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishni ta'minlash maqsadida sohada demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va izchil davom ettirish talab etiladi.

Shu munosabat bilan, ezgu maqsad va vazifalar hamda asosiy yo'nalishlarni nazarda tutuvchi Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini (keyingi o'rinlarda — Milliy strategiya) amalga oshirish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

## REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикасининг "Олий Мажлиснинг Инсон ҳуқуқлари бўйича вакили (Омбудсман) тўғрисида"ги Қонуни (27.08.2004 йил янги таҳрирда қабул қилинган) // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997, № 4-5,102-модда.
2. О деятельности Уполномоченного Олий Мажлиса по правам человека (Омбудсмана) в 2002 году // [http://lex.uz/pages/GetAct.aspx?lact\\_id=89126](http://lex.uz/pages/GetAct.aspx?lact_id=89126)
3. О деятельности Уполномоченного Олий Мажлиса по правам человека (Омбудсмана) в 2002 году // [http://lex.uz/pages/GetAct.aspx?lact\\_id=89126](http://lex.uz/pages/GetAct.aspx?lact_id=89126).
4. <https://lex.uz/acts/276159>
5. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Инсон ҳуқуқлари бўйича вакили (Омбудсман)нинг 2009 йилдаги фаолияти тўғрисида ҳисобот //Ўзбекистон Республикаси Инсон ҳуқуқлари бўйича вакили (Омбудсман) жорий архиви.-Т.,2010.-Б.18-19.

<sup>9</sup><https://ifmr.uz/files/journals/818109.pdf?file=/files/journals/818109.pdf>

6. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатасининг 2010-2014 йиллардаги фаолияти тўғрисида ахборот // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг ахборотномаси, 2014,№12 (1465).-Б.82-82.
7. “2017 — 2021 йилларда ўзбекистон республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегиясини «илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 02.03.2020 йилдаги ПФ-5953-сон. <https://lex.uz/docs/4751561>
8. <https://ifmr.uz/files/journals/818109.pdf?file=/files/journals/818109.pdf>